

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI

FARG'ONA DAVLAT UNIVERSITETI

**FarDU.
ILMIY
XABARLAR**

1995-yildan nashr etiladi
Yilda 6 marta chiqadi

2-2024

**НАУЧНЫЙ
ВЕСТНИК.
ФерГУ**

Издаётся с 1995 года
Выходит 6 раз в год

F.A.Yuldashev	
Axborotlashgan jamiyat sharoitida yoshlarning ehtiyoj va manfaatlarini gumanizatsiyalash masalalari	218
I.A.Asatulloev	
Alfred adler falsafasida qalb tushunchasining psixoanalitik tahlili	223
D.Sh.Sagdullayeva	
Ijtimoiy - siyosiy modernizatsiya jarayonining tarixiy ildizlari	228
S.S.Sodiqov	
Yoshlarda faol pozitsiyani shakllantirishning milliy-tarixiy asoslari	234
I.A.Hamdammov	
Mirzo Ulug'bek – temuriylar renessansi asoschisi	240
H.X.HAKIMOV	
Развитие социально экономических идей в трудах ученых энциклопедистов Узбекистана в период первого ренессанса	245
Q.H.Boymirzayev	
Abu Abdulloh Rudakiyning hayoti va faoliyat yo'li, uning Musulmon Sharqidagi ijtimoiy-madaniy muhitning shakllanishidagi o'rni	252
B.M.Qandov, N.A.Abduvalieva	
Yangilanayotgan O'zbekistonda aholini ish bilan ta'minlashning ijtimoiy-huquqiy asoslari	256
E.T.Qalqanov	
Vatanparvarlik madaniy hodisa sifatida ijtimoiy-falsafiy xususiyatlari	261
Sh.X.Tog'ayev	
Yangilanayotgan O'zbekistonda o'zbek xalqi milliy g'ururini shakllantirishning manbalari va vositalari	266
I.A.Ikramov	
Jamiyat ijtimoiy hayotida ijtimoiy xotira va madaniy qadriyatlar strukturasi	272
V.B.Zayniddinova	
Jamiyat taraqqiyoti va ijtimoiy-madaniy texnologiyalar strategiyasi	277
J.M.Miraxmedov	
Milliy o'zlikni anglash kontekstida tarixiy ongning gnoseologik tahlili	281
B.X.Mirzaraximov	
O'zbekiston yangi taraqqiyot bosqichida turizm madaniyati rivojlanishining ijtimoiy-siyosiy va ma'naviy omillari	285
D.E.Normatova	
Ekzistensializm – hayot falsafasi	293

SIYOSAT

I.A.Raximov	
“Obod va xavfsiz mahalla” tamoyilining xavfsiz muhitni yaratishdagi o`ziga xos mexanizmlari”	297
M.H.Rustamaliyev	
Jamiyatni barqaror taraqqiyotini ta'minlashda siyosiy boshqaruvga ehtiyojning kuchayishi	302
N.B.Dexkanov	
Siyosiy piar (pr)ning jamiyat taraqqiyotidagi o'rni	306
M.X.Baratov, R.T.Xakimov, B.T.Akramxodjaev	
Jahon Savdo tashkilotining tuzilishi, funksiyalari va faoliyat doirasi	312
J.K.Yusubov, F.X.Mustafoyeva	
Mamlakatimiz ijtimoiy rivojlanishida jahon davlatlari tajribasidan foydalanish	323
J.K.Yusubov, D.A.Xusanova	
Ahloqan yetuk va fidoiy davlat fuqarolik xizmatchilarini tarbiyalash – mamlakat rivojining muhim omili	327

TARIX

A.Sharafiddinov	
Farg'ona viloyatida yog'-moy sanoatining shakllanishi tarixidan (XIX asr oxiri XX asr boshlari)	331



UDK 000.1(091)

MIRZO ULUG'BEK – TEMURIYLAR RENESSANSI ASOSCHISI

МИРЗО УЛУГБЕК – ОСНОВОПОЛОЖНИК ТИМУРИДСКОГО РЕНЕССАНСА

MIRZO ULUGBEK IS THE FOUNDER OF THE TIMURID RENAISSANCE

Hamdamov Islom Akramovich 

Samarqand davlat chet tillar instituti falsafa fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dotsent

Annotatsiya

Jahon xalqlari ma'naviy merosining tarkibiy qismi bo'lmish SHarq ilmiy-falsafiy tafakkuri asrlar davomida umuminsoniy ma'naviy qadriyatlar sifatida doimiy e'tiborni tortib kelmoqda. SHarq ilmiy-falsafiy tafakkurining muhim tarkibiy qismi bo'lgan Temuriylar davrining falsafiy qarashlarini jahon miqyosida o'rganish sharqdagi ikkinchi uyg'onish davri mohiyatini anglashga muhim ahamiyat kasb etadi. Jahon falsafa tarixida Temuriylar davri falsafiy tafakkur tarqiyotini o'rganish bo'yicha izlanishlar olib borilmoqda. Temuriylar davri mutafakkirlarining ijtimoiy-falsafiy g'oyalarini hozirgi zamon talablari nuqtai nazaridan ilmiy-nazariy tadqiq etish yoshlarda yuksak ma'naviy qiyofani shakllantirishda, ularni axloqiy jihatdan yuksaltirishda muhim ahamiyat kasb etadi. Ushbu maqolada falakkiyotshunoslik ilmining rivojlanishiga hissa qo'shgan sharq va g'arb olimlari, ularning ma'naviy merosi, hukmdor va falakkiyotshunos olim Mirzo Ulug'bekning hayoti, ilmiy va bunyodkorlik faoliyati, madrasalari, rasadxonasi, mutafakkir bilan faoliyat olib borgan allomalarning ma'naviy merosini ilmiy jihatdan tadqiq qilgan bir qator qator olimlar haqida fikr yuritiladi.

Аннотация

Восточное научно-философское мышление, являющееся составной частью духовного наследия народов мира, на протяжении веков привлекает постоянное внимание как общечеловеческие духовные ценности. Большое значение для понимания сущности второго периода Возрождения на Востоке имеет глобальное исследование философских воззрений периода Тимуридов, которое является важной составляющей научно-философского мышления Востока. В истории мировой философии проводятся исследования по изучению развития философской мысли эпохи Тимуридов. Научно-теоретическое изучение общественно-философских идей мыслителей эпохи Тимуридов с точки зрения требований современности имеет большое значение в формировании высокого духовного облика молодежи и ее нравственном воспитании. В этой статье восточные и западные учёные, внесшие вклад в развитие науки астрономии, их духовное наследие, жизнь правителя и астролога Мирзо Улугбека, научная и творческая деятельность, медресе, обсерватории, духовная жизнь учёных, работавших с мыслителем Обсуждается ряд ученых, научно исследовавших наследие.

Abstract

Eastern scientific-philosophical thinking, which is a component of the spiritual heritage of the peoples of the world, has been attracting constant attention for centuries as universal spiritual values. The global study of the philosophical views of the Timurid period, which is an important component of the scientific and philosophical thinking of the East, is of great importance for understanding the essence of the second renaissance period in the East. In the history of world philosophy, research is being conducted to study the development of the philosophical thinking of the Timurid era. The scientific-theoretical study of the socio-philosophical ideas of the thinkers of the Timurid era from the point of view of the requirements of the present time is of great importance in forming a high spiritual image in young people and raising them morally. In this article, Eastern and Western scientists who contributed to the development of the science of astronomy, their spiritual heritage, the life of the ruler and astrologer Mirzo Ulugbek, scientific and creative activities, madrasas, observatories, and the spiritual life of scholars who worked with the thinker A number of scholars who scientifically researched the heritage are discussed.

Kalit so'zlar: Temuriylar, "Almajistiy", "Zij", "Qonuni Mas'udiy", "Ziji Elxoniy", madrasa, rasadxona, Qozizoda Rumi, Jamshid Koshiy, Ali Qushchi, renessans, astronomik jadval, mantiq, Ptolemey, Tomas Hayd, Jon Grivs.

Ключевые слова: Тимуриды, «Алмаджисти», «Зидж», «Кануни Масуди», «Зиджи Эльхани», медресе, обсерватория, Газизада Руми, Джамшид Коши, Али Кушчи, ренессанс, астрономическая таблица, логика, Птолемей, Томас Хайд, Джон Гривз.

Key words: Timurids, "Almajisti", "Zij", "Kanuni Mas'udi", "Ziji Elkhani", madrasa, observatory, Qazizada Rumi, Jamshid Koshi, Ali Qushchi, renaissance, astronomical table, logic, Ptolemy, Thomas Hyde, John Greaves.

KIRISH

Bundan olti asr muqaddam qadiymiy Samarqandda Mirzo Ulug'bek va uning akademiyasi tomonidan ishga tushirilgan rasadxonadan olis koinot qa'riga tashlangan nazar faqat Sharqdagina emas, balki jahon ilm-fanini koinotni o'rganishga qo'yilgan buyuk bir qadami bo'ldi. Shu ilk amaliy qadam tufayli, G'arbiy Evropada o'z zamonasining ilg'or jihozlangan rasadxonalari ishga tusha boshladi. Polshada olam tuzilishining geliotsentrik nazariyasini N.Kopernik, Milanda koinotning cheksizligi va unda quyosh tizimi tuzilishi nazariyasi Jordano Bruno, Germaniyada samo jismlarining harakat qonunlarini ifodalovchi, koinot mexanikasi I.Kepler tomonidan, Angliyada osmon jismlarining massalarini hisoblash usuli I.Nyuton tomonidan o'rganilishining asosida Samarqand akademiyasining o'rni muhim edi. Koinotda, Quyosh, Oy va sayyoralarning harakatlarini o'rganish bo'yicha Mirzo Ulug'bek akademiyasi qo'ygan poydevor – nazariy va amaliy astronomiya fanning shakllanishiga, o'zining ulkan hissasini qo'shdi. Shu sabab, Mirzo Ulug'bek ma'naviy merosi, akademiyasi asrlar davomida jahon ilm ahlini qiziqtirib kelmoqda. Mirzo Ulug'bek hukmdor bo'lishiga qaramasdan astronomiya, matematika, tarix, falsafa, musiqa, adabiyot kabi fanlarga mehr qo'ygan edi.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYASI

Mirzo Ulug'bek [4-3] 1394-yilda Sultoniya shahrida, Amir Temurning besh yillik harbiy yurishlari davrida tug'ildi. Amir Temur vafotidan so'ng o'zaro kurashlarda Shohrux mirzo hokimiyatni qo'lga oldi. Shohrux Mirzo o'ziga Hirotni poytaxt qilib oldi va o'g'li Mirzo Ulug'bekni Movarounnahr hukmdori deb e'lon qildi va Samarqandni poytaxt qilib berdi. Ushbu davrda Hirot va Samarqand ilm-fan, madaniyat rivojlangan shaharlarga aylandi. Mirzo Ulug'bek dastlab buvisi Saroymulk xonim qo'lida, keyinchalik otaliq amir Shoh Malik qo'lida tarbiyalangan. Taniqli olim A.Ahmedov fikriga ko'ra Amir Temurning saroyidagi eng yirik olimlardan biri Mavlono Ahmad Ulug'bekka dastlabki astronomiyaga oid bilimlarni bergan bo'lishi mumkin [4-28]. Ammo Mirzo Ulug'bekning o'zining "Zij" asarida Qozizoda Rumiyni "ustozim" deb ataydi. Mirzo Ulug'bek Mavlono Ahmad va Qozizoda Rumiyy kabi astronom va matematiklar ta'sirida o'z davrining yirik olimlaridan biriga aylandi. Mirzo Ulug'bekning ilm-fanga qiziqishi tufayli Samarqand, Buxoro va G'ijduvonda uchta madrasa barpo etdi va madrasalarga olimlarni to'play boshlaydi. Ayniqsa Samarqand madrasasi va astronomik maktabiga bobosi Amir Temur davridayoq ilm-fan bilan shug'ullanayotgan Taftazoniy, Mavlono Ahmad va Qozizoda Rumiyy kabi olimlar taklif qilinadi. Qozizodaning Rumiyy maslahati bilan Mirzo Ulug'bek Xurosondan G'iyosiddin Jamshid Koshiyni chaqirtiradi. 15 asr boshlarida Samarqand madrasasining ochilishi arafasida Movarounnahr va Xurosondan to'plangan olimlarning soni yuzdan ortib ketadi. Amir Temur davrida Samarqand imperiyaning siyosiy markazi sifatida mashhur bo'lgan bo'lsa, Mirzo Ulug'bek davrida jahonning ilm-fan va madaniyat markazi sifatida muhim ahamiyat kasb etdi. Mirzo Ulug'bek qadimgi yunon olimlaridan Aflotun, Arastu, Ibbaxus, Ptolemey [9-3,19], sharq olimlaridan, Farobiy, Abu Rayxon Beruniy, Ibn Sino, Xorazmiy, Nasriddin Tusiylarning [9-20] asarlarini tahlil qilib zomondoshlariga etkazgan buyuk olim edi. Akademik V.V.Bartoldning ta'kidlashiga ko'ra "islom olamida Ulug'bekkacha hech bir podshoh olim bo'lmagan" [5-134,146]. Muarrir Zayniddin Vosifiy "Badoi' ul-vaqoi'" [6-288] asarida ta'kidlashicha "Madrasayi Oliya"da bosh mudarris etib mavlono Shamsuddin Muhammad Xavofiy tayinlanadi. Shuningdek madrasada, Qozizoda Rumiyy, G'iyosiddin Jamshid Koshiy, Ali Qushchi, Mirzo Ulug'bek kabi mashhur olimlar ma'ruzalar qilganlar. Samarqand madrasasi olimlar jamoasi Sharq va g'arb ilm fani va madaniyati rivojiga katta ta'sir ko'rsatdi. Jumladan, sharqning mashhur ijodkori Abdurahmon Jomiy Samarqand madrasasida tahsil olgan.

NATIJA VA MUHOKAMA

Samarqand madrasasi olimlari aniq va tabiiy fanlar, ijtimoiy-gumanitar fanlar bilan shug'ullangan, ammo eng rivojlangan ilmiy tadqiqot yo'nalishlardan biri astronomiya fani edi. Mirzo Ulug'bekkacha yulduzlar jadvalini Klavdiy Ptolomey (2 asr), Abdurahmon So'fiy (10 asr), Abu Rayxon Beruniy (10-11 asr), Nasriddin Tusiylar tuzishgan edi. Mo'g'ul bosqini davrida, Markaziy Osiyoda ilm-fan rivojlanishi to'xtab qolgan edi. Shu maqsadda Mirzo Ulug'bek Samarqandda akademiya faoliyati bilan bir qatorda, 1424-1429-yillar ichida ulkan rasadxonani bunyod ettirdi va astronomik kuzatishlarni olib bordi. Muarrir Abu Tohirxo'ja "Samariya" asarida qayd etishiga ko'ra: "Madrasaga asos solinganidan to'rt yil keyin Mirzo Ulug'bek, Qozizoda Rumiyy, Mavlono G'iyosiddin Jamshid va Mavlono Muiniddin Koshoniylar bilan maslahatlashib, Ko'hak tepaligida Obi Rahmat arig'ining bo'yida rasadxona binosini qurdiradi. Uning atrofida esa baland hujralar barpo etadi" [1-

336]. Madrasa va rasadxonaning o'zaro birgalikdagi ilmiy faoliyati Mirzo Ulug'bek ilmiy maktabida astronomiya va matematika fanlarining rivojlanishiga sabab bo'ldi va mutafakkir bir qancha ilmiy asarlar yozdi. Jumladan, astronomiyaga oid "Ziji jadidi Guragoniy", matematikaga oid "Risolayi Ulug'bek", "Bir daraja sinusini aniqlash haqida risola", tarixga oid "Tarixi arba' ulus" kabi asarlarini bitdi va bu asarlar bugungi kungacha saqlanib qolgan. Mirzo Ulug'bekning koinot haqidagi bilimlari, Iskandariya, Bog'dod va Damashqda boshlangan astronomik kuzatishlarni davom ettirsada, ularga nisbatan nazariy va amaliy jihatdan mukammal, ilmiy aniqligi bilan ajralib turadi.

Mutaxassislar fikriga ko'ra "Zij" so'zining ma'nosi katta hajmdagi ma'lumotlarni o'zida jamlaganligi uchun ushbu asar arabcha "Zij" deb aytilgan. Yulduzlar jadvali 1437-yilda tuzilgan bo'lib, asar ikki qismdan: muqaddima va 1018 qo'zg'almas yulduzlarning o'rni va joylashishi aniqlab berilgan. E'tiborli tomoni, muallif asarning kirish qismida Qur'oni karimdan yulduzlar, sayyoralarga oid oyatlarni qayd etadi va keltirilgan ilmlarni nazariy va amaliy jihatdan dunyoviy bilimlarga bog'liq, adekvat (o'xshash, mos) ekanligini ta'kidlab o'tadi. Bugungi tadqiqotchilar "Zij" asari Mirzo Ulug'bekning o'zi tomonidan yozilganmi yoki boshqalar tomonidan yozilganmi kabi qarashlarni ilmiy jamotchilik o'rtasiga tashlaydi. Ammo "Zij" asarining kirish qismida bu savolga javob sifatida quyidagi ma'lumotlarni qayd etish zarur: "So'ng, parvardigor bandalarining faqiru haqiri, ulardan Allohga eng intiluvchisi Ulug'bek ibni SHohrux ibni Temur Ko'ragon bunday deydi". Demak ushbu jumladan ko'rinadiki, "Zij"ning muallifi Mirzo Ulug'bekning shaxsan o'zi bo'lgan[2]. Ammo Mirzo Ulug'bek asarni yaratishda ko'plab olimlar ilmiy-falsafiy qarashlaridan va tadqiqot ishlaridan foydalanganligini quyidagi fikrlaridan bilishimiz mumkin. Jumladan, Qozizoda Rumi, Jamshid Koshiy, Ali Qushchilar "Zij" ilmiy-amaliy asarini yaratilishida ishtirok etgan. Jumladan, Jamshid Koshiy Samarqandga 1416-yili kelib, "Zij"ning nazariy qismini arab tiliga tarjima etganligini qayd etgan. Anglashimizga ko'ra, Mirzo Ulug'bek dastlab "Zij"ning nazariy qismini, so'ng jadvalni uzoq amaliy kuzatishlar natijasida tuzib chiqqan. Mirzo Ulug'bek "Zij" asarini ustoz Qozizoda Rumi bilan boshlagan bo'lsa, shogirdi Ali Qushchi bilan hamkorlikda nihoyasiga etkazdi. "Ziji jadidi Guragoniy" asarining mazmuniga e'tibor qaratsak birinchi qismi – "Ta'rix – xronologiyaning ma'rifati" deb nomlanib etti bobdan iborat va yil hisoblari, taqvim masalalariga bag'ishlangan. Asarda islomda yil hisobi – "hijriy" era, "sur'yoni" – yunoniy era, "jaloliy" era, "xitoy" va "uyg'ur" era, "forsiy" – qadimiy eralar, turkiy muchal yillari qiyosiy o'rganilgan va keltirilgan yil sanalarni turli xalqlar taqvimlari bo'yicha moslashtirilib muhim sanalar haqida fikr yuritilib, mufassal bayon etilgan. Ikkinchi qismi - "Vaqtlar va unga taalluqlik nimarsalar" deb nomlanib yigirma ikki bobdan iborat bo'lib, matematika va sferik astronomiya haqida fikr yuritiladi. "Zij"ning ikkinchi va uchinchi boblarida asosan matematikadan sinuslar va tangenslar jadvallari keltiriladi. "Zij"ning to'rtinchi bobida Mirzo Ulug'bek ekliptikaning (tutilish, quyoshning harakatlanish yo'li, falak ul-burj) osmon ekvatoriga (mu'addal un-nahor) og'ish burchagining miqsorini (o'lchov, shakl) keltiradi. Bu haqda muallif "Zij"da quyidagi fikrlarni keltiradi: "Bizning kuzatishimizcha, eng katta og'ish (ya'ni ekliptikaning osmon ekvatoriga og'ishi) burchagini yigirma uch daraja o'ttiz daqiqa o'n etti soniya topdik". Mirzo Ulug'bek tomonidan topilgan bu vaqt o'lchovi, o'z davri uchun yuqori darajadagi aniqlik edi. Asarning uchinchi qismi o'n uch bobdan iborat bo'lib, faqat falakkiyotshunoslikka bag'ishlanib, Quyosh, Oy va sayyoralarning harakatlari haqida fikr yuritilgan. Zijdagi asosiy astronomik jadvallar aynan shu boblarda keltirilgan. Jumladan, "Turg'un yulduzlarning uzunlama va kenglama bo'yicha holatlarini aniqlash" deb atalgan yulduzlar jadvalidir. Mirzo Ulug'bek "Ziji jadidi Guragoniy" asarining boshqa "Zij"lardan farqini ko'rsatish uchun uning quyidagi fikrlarini ta'kidlash zarur. Muallif ta'kidlashiga ko'ra: "Ptolemeygacha bo'lgan astronomlar bir ming yigirma ikki yulduzning holatini aniqladilar. Ptolemey esa ularni oltita kattalik bo'yicha tartiblab, o'z "Almajistiy"sida keltirdi. Ularning eng kattasi – birinchi kattalikda, eng kichigi esa oltinchi kattalikdadir. Har bir kattalikni u uch qismga ajratdi. Ularni bir-biridan farq qilish uchun qirq sakkiz yulduz turkumiga joylashtirdi. Ularning yigirma bittasi falak ul-burjdan (ekliptika) shimolda, o'n ikkitasi falak ul-burjda va o'n beshtasi falak ul-burjdan janubda joylashadi. Bu yulduzlardan ayrimlari shu yulduz turkumlarining o'zida, ayrimlari esa turkumdan tashqarida joylashadi. Bu keyingilarni yulduz turkumlarining tashqi yulduzlari deb hisoblanadi. Abdurahmon So'fiy turg'un yulduzlarni aniqlash to'g'risida maxsus kitob yozgan, barcha kishilar unga murojaat qiladilar va uni qabul etadilar. Biz esa yulduzlarning osmon kurrasidagi holatini kuzatishimizga qadar ular haqida Abdurahmonning kitobidagiga asoslanardik. Biroq o'zimizda kuzatganimizdan keyin ba'zi yulduzlarning holati uning kitobidagiga mos kelmasligini ko'rdik. Alloh bizning kuzatishlarimizga taovun berganidan so'ng, bu yulduzlar va boshqa yulduzlarning holatlari Abdurahmonning aytganiga zid ekanligining shohidi bo'ldik. Biz bu yulduzlarni o'z kuzatishimizga mos kelgan holda kurraga joylashtirganimizda esa

FALSAFA

kuzatganimizga hech zid kelmaganligini ko'rdik. Biz bunga imonimiz. Biz barcha yulduz turkumlaridagi yulduzlarni kuzatdik. Demak Mirzo Ulug'bekning yulduzlar jadvali o'z davri uchun aniqlikda eng mukammal jadval bo'lgan. Ushbu jumlar, Mirzo Ulug'bek madrasasi va rasadxonasida yulduzlar xaritasi va osmon globusi yasalgan degan ilmiy xulosaga olib keladi. "Zij"ning "Yulduzlarning doimiy harakati" deb nomlangan to'rtinchi qismi ikki bobdan iborat va u asosan astronomiyaga bag'ishlangan. Mirzo Ulug'bek "Zij"i o'z davri uchun mukammal astronomik asar bo'lib, asosan amaliy qo'llanishga mo'ljallangan edi va shu sababli tezda falakkiyotshunos olimlar orasida shuhrat topdi. "Zij"ni dastlab Samarqand madrasasi olimlaridan Ali Qushchi so'ngra Miram Chalabiy va Husayn Birjandiylar ilmiy sharhlaydi. Dastlab SHoxruh, so'ngra Mirzo Ulug'bekning fojiali halokati, temuriylar o'rtasidagi o'zaro nizolar tufayli Movarounnahrning etuk olimlari Sharq mamlakatlari bo'ylab tarqalib ketdi. Olimlar o'zlarining ilmiy yutuqlari qatorida "Zij" asarining asl nusxalarini ham o'zlari bilan olib ketdilar. Jumladan, Ali Qushchi 1473-yili Turkiyaga borib, u erda rasadxona barpo etib "Zij" asarini Yaqin Sharq va O'rta Sharq, Turkiya va Evropa mamlakatlariga yoyilishiga sababchi bo'ldi. Bugungi kunda dunyo kutubxonalarida "Zij"ning bir yuz yigirmaga yaqin forsiy va arabiy nusxalari mavjud. O'rta asrlarda yaratilgan matematika va astronomiyaga oid biror asar "Zij" kabi mashhur bo'lmagan. Tadqiqotchilar fikriga ko'ra Hindistonda "Zij" asari Zahiriddin Muhammad Bobur orqali tarqalganlini isbotlovchi ayrim dalillarni tadqiqotlarida qayd etishgan. Boburiy hukmdorlar Samarqand olimlari an'analarini davom ettirib, atrofiga olimlarni to'plab astronomiya va matematikaga oid ilmiy ishlarni davom ettiradilar. Muhammadshohiy" asarini yozishda Mirzo Ulug'bek "Zij"idan foydalangan. Amir Temur va temuriylar saltanati, ayniqsa Mirzo Ulug'bek haqida G'arbiy Evropa xalqlari va mamlakatlari XV asrdanoq bilardi. "Zij"ning G'arbiy Evropa ilm-faniga ham ta'siri etarli darajada katta bo'lgan. Ayniqsa Ali Qushchining Turkiyadagi faoliyati tufayli Mirzo Ulug'bekning ilmiy maktabi haqidagi xabarlar Evropa ilmiy jamoatchiligiga keng tarqaldi. 1638-yili Oksford universiteti sharqshunos professori Jon Grivs Istambulga tashrif buyuradi va Mirzo Ulug'bek "Zij"ining nusxasini Angliyaga olib ketadi. Jon Grivs 1648-1652 yillar oralig'ida Angliyada "Zij"ining ayrim qismlarini lotin tilida nashr ettiradi. 1665 yili sharqshunos Tomas Hayd "Zij"dagi turg'un yulduzlar jadvalini forsha va lotinchada chop etadi. Ushbu nashrlarning qiziq tomoni Hayd va Grivs bir birining ilmiy ishlaridan butunlay bexabar bo'lishgan. 1680-yili polyak olimi Yan Geveliy Dansigda "Zij"ning ayrim qismlari va jadvallarini chop etadi. 1847-1853 yillarda fransuz sharqshunosi L.A.Sediyo "Zij"ning ayrim qismlarini fransuz tilida nashr etadi. Amerikalik olim E.B. Nobl 1917-yil Vashingtonda Britaniyada saqlanayotgan "Zij"ning yigirma sakkiz qo'lyozmasi asosida yulduzlar jadvalini ingliz tilida chop etadi. Mirzo Ulug'bek "Ziji jadidi Guragoniy" asari turli davrlarda o'rganilishiga qaramay biror zamonaviy tillarga butunlay tarjima etilmagan. Mustaqillik sharofati bilan 1994-yili Mirzo Ulug'bek tavalludining 600 yilligi munosabati bilan Toshkentda "Ziji jadidi Guragoniy"[7] asari rus tilida va "Tarixi arba' ulus"[8-352] asari o'zbek tilida nashr etildi. Mirzo Ulug'bek falakkiyotshunoslikka oid asarlardan tashqari tarixiy asarlar ham yozgan. Uning 1425-yili "Tarix-i arba' ulus" nomli asarida 13-15 asrlar mo'g'ullar imperiyasining emirilishi butun temuriylar saltanati egallagan xalqlar va mamlakatlar haqida ma'lumotlar beradi. Mirzo Ulug'bek ibratli voqealardan hikoya qiluvchi rivoyatlar va she'rlar ham yozganligi haqida ma'lumotlar mavjud. Uning "Risolai Ulug'bek" deb atalgan asari hozir Hindistonning Aligarx kutubxonasi saqlanib, hozirgacha o'rganilmagan [8].

XULOSA

Shu tariqa Mirzo Ulug'bek davrida Movarounnahr va Xurosonda ijtimoiy-siyosiy, iqtisodiy hayot, ilm-fan va madaniyat yuksak darajada taraqqiy etdi. Temuriylar renessans davrini, taniqli olim N.I.Konrad "Musulmon renessansining so'nggi davri va umuminsoniyat renessansining bir qismi" deb ataydi. O'zbekiston o'z davlat mustaqilligini qo'lga kiritgach, buyuk mutafakkirlarning ma'naviy merosini o'rganish, qayta tiklash masalasi dolzarb, muhim ahamiyat kasb etdi. Chunki buyuk mutafakkirlarning hayoti va faoliyati, ma'naviy merosi o'rganish, targ'ib qilish, vatanimiz yoshlarida gumanistik, vatanparvarlik, bag'rikenglik, ilm-fanga qiziqish va rivojlantirish kabi tuyg'ularini o'yg'otadi. Jumladan, hukmdor va olim Mirzo Ulug'bek hayoti va faoliyatini o'rganish, jahon ilm-fani taraqqiyotiga qo'shgan hissasini anglash ahamiyatli hisoblanadi. Bugungi kunda Mirzo Ulug'bekning ma'naviy merosi bo'yicha yangi tadqiqotlar o'tkazish, ilmiy asarlarini nashr ettirish olimlarimiz oldidagi dolzab vazifalardan biridir.

ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Абу Тоҳирхожа Самарқандий. Самария. - Тошкент: Камалак, 1991.
2. Аҳмедов А. e-tarix.uz сайти: <http://www.e-tarix.uz/shaxslar/482-ulugbek.html>
3. Аҳмедов А. Улуғбек. – Т.:Фан, 2005; Аҳмедов А. Улуғбек. –Т., 1991; Абдурахмонов А. Улуғбек академияси. – Т., 1994.
4. Ашраф Аҳмедов. Улуғбек Муҳаммад Тарағай. – Тошкент: О"ZBEKISTON, 2011.
5. Бартольд В.В. Улуғбек и его время / Сочинения, М.: Наука 1964.
6. Зайниддин Восифий. Бадоиъ ул-вақоиъ. – Тошкент: Адабиёт ва санъат , 1979.
7. Мирзо Улуғбек Мухаммед Тарағай. Зиджи джадиди Гурағони. Новые Гурагановы астрономические таблицы. Вступительная статья, перевод комментарии и указатели А. Ахмедова. Т.Изд. «Фан». Академии Наук Республики Узб. 1994.
8. Мирзо Улуғбек. "Тўрт улус тарихи". Б. Аҳмедовнинг кириш сўзи, изоҳлари ва таҳрири остида, форсчадан Б.Аҳмедов, Н.Норкулов, М.Ҳасановлар таржимаси. – Тошкент: Чўлпон, 1994.
9. Мирзо Улуғбек. Илму Нужум. Таржимон, изоҳлар муаллифи Ашраф Аҳмад. – Тошкент.: Абдулла Қодирий, 1994.